RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA GEMIFIKATSIYA TEXNALOGIYASINING O‘RNI

Isayeva G.P.,GDPI professori
Turdiboyeva S.Sh.,GDPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta’lim jarayonida gemifikatsiya texnologiyasining o‘rni, afzalliklari va undan foydalanish metodlari yoritilgan. Gemifikatsiya vositasida o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni faol va mustaqil o‘rganishga yo‘naltirish, bilimlarni chuqurroq egallashlariga erishish mumkinligi misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Gemifikatsiya, raqamli ta’lim, motivatsiya, o‘yin elementlari, interaktiv metodlar, raqamli platformalar.

Annotation: This article highlights the role, advantages, and methods of using gamification technology in the process of digital education. Through gamification, it is possible to increase students' interest in learning, direct them towards active and independent study, and help them gain deeper knowledge, as analyzed through examples.

Key words: Gamification, digital learning, motivation, game elements, interactive methods, digital platforms.

Butun dunyoda ta'limning rivojlanishi tashkiliy va boshqaruv tuzilmalariga, uning maqsadlari va mazmuniga, usullari va texnologiyalariga, moliyalashtirish manbalari va mexanizmlariga teng ta'sir ko‘rsatadigan o‘zgarishlarning intensivligi bilan tavsiflanadi. Ta'lim g'oyasi va ta'lim va ish va kundalik hayot o‘rtasidagi aloqalar qayta ko‘rib chiqilmoqda. Odamlar hayotidagi o‘zgarishlar va axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim sohasida ham o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda dunyo bo‘ylab ta’lim tizimi jadallik bilan raqamlashtirilmoqda. Onlayn, gibrid va masofaviy o‘qitish formatlarida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan e’tibori va ishtirokini ta’minlash eng asosiy vazifalardan biriga aylangan. Raqamli ta’limning asosiy muammolaridan biri — bu o‘quvchilarni virtual muhitda faol ishtirok etishga undash va ularni o‘rganishga jalb qilishdir. Shu muammoga yechim sifatida so‘nggi yillarda gemifikatsiya metodiga bo‘lgan qiziqish ortmoqda.

Gemifikatsiya — bu o`yin elementlarini ijtimoiy faoliyatning boshqa turlariga tatbiq etilishi.[1] Bu metod yordamida o‘quvchilar o‘zlarini o‘yin qahramoni sifatida his qiladi, topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarar ekan, darsdan zavqlanadi, bilimlarni ongli ravishda egallaydi. Bu tushunchani ilk bor Amerikalik dasturchi va ixtirochi Nik Pelling 2002 yilda iste’molga kiritgan. Uning ta’rifi bO‘yicha “Gemifikatsiya - bu auditoriya diqqatini jalb qilish va muammolarni hal qilish uchun o‘yin tarzda savollarni taqdim etish va shu asosida fikrlash hamda o‘yin dinamikasidan foydalanish jarayonidir” [2]. Esseks universiteti professori Richard Bartl gemifikatsiyaga quyidagicha ta’rif beradi “Gemifikatsiya o‘yin bo‘lmagan narsani o‘yinga aylantirishdir” . Shuningdek, Bloomsburg universiteti olimi Karl Kapp ham shunday deydi “Gemifikatsiya o‘quvchilarning ishtirokini oshirish, bilimni mustahkamlash va o‘rganilgan ma’lumotlarni amaliyotda qo‘llashga yordam beradi.”[3]. U shuningdek, gemifikatsiya faqat ko‘ngilochar element emas, balki didaktik vosita bo‘lishi kerak deb ta’kidlaydi.

Gemifikatsiya quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi:

• Ballar: Har bir bajarilgan topshiriq uchun ball berish orqali o‘quvchini rag‘batlantirish.

• Darajalar: O‘quvchilar ma’lum darajalarni bosib o‘tib, o‘z yutuqlarini kuzatadilar.

• Reytinglar: Guruh ichida raqobatni oshirish uchun ishlatiladi.

• Mukofotlar: Maxsus belgilar orqali e’tirof etish.

• Missiyalar: Dars mavzusi doirasida topshiriqlarni bosqichli va sarguzasht shaklida berish.

• Feedback: Har bir harakatdan keyin natijani ko‘rsatish orqali o‘z-o‘zini tahlil qilishga imkon yaratish.

Raqamli ta’limda gemifikatsiyaning afzalliklari:

1. Motivatsiya va rag‘batlantirish:

Gemifikatsiya o‘quvchilarni tashqi va ichki jihatdan rag‘batlantiradi. Ball to‘plash, sovrinlar, reytingda yuqori o‘rinni egallash o‘quvchilarni doimiy harakatda bo‘lishga undaydi. Chunki, virtual qaramlik domiga tushib ulgurayotgan yoshlarimizga aynan ular qadrli deb bilgan vosita orqali ta’sir O‘tkazmasak, ularning ta’limi va tarbiyasini faqatgina aytilayotgan sO‘zlar va tanbehlar bilan shakllantira olmaymiz.

2. Interaktivlik va faol ishtirok:

Oddiy ma’ruza yoki darslikka qaraganda, gemifikatsiyalashgan dars o‘quvchini faol fikrlashga, muammo yechishga va qaror qabul qilishga jalb qiladi. Nosog’lom turmush tarzi va virtual qaramlik natijasida yoshlarimiz atrof-muhitda sodir bO‘layotgan voqea-hodisalarga loqayd qaramoqda. Gemifikatsiyalashgan darslar ularning ma’naviy va fiziologik charchoq holatini harakatga keltirishga yordam beradi.

3. Shaxsiylashtirilgan ta’lim:

Har bir o‘quvchi o‘ziga qulay tezlikda harakatlanishi, individual missiyalar bajarishi mumkin. Bu metod o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi.

4. Tashqi va ichki baholashning uyg‘unligi:

Raqamli gemifikatsiya platformalarida o‘quvchilarning faoliyati doimiy kuzatib boriladi, avtomatik baholash, statistik tahlil qilish va teskari aloqa berish imkoniyati mavjud. Bilamizki, odatiy darslarda sinf yoki guruhdagi barcha O‘quvchi-talabalarni baholashga vaqt yetmaydi. Bu O‘z navbatida, O‘zlashtirishi past O‘quvchilarning yanada chetta qolib ketishiga sabab bO‘ladi. Gemifikatsiyalashgan darslar aynan shu muammolarga yechim beradi.

Rivojlangan mamlakatlar – AQSh va Xitoyning yirik kompaniyalarida gemifikatsiyadan ishlab chiqarish jarayonida foydalanilib yuqori natijalarga erishilgani tadqiqotlarda keltirilgan. Dunyoga mashxur kompaniyalar - Microsoft, Cisco, Google, Word va boshqalarning ham gamifikatsion platformalar orqali hodimlarning kasbiy malakalarini rivojlantirish yO‘lga qO‘yilganligi keltirib O‘tilgan.[3] Kompaniyalar qO‘llagan tajribalarga tayanib ta’lim tizimiga ham ushbu texnologiyani qO‘llash sifat va samaradorlikni oshirishda katta hissa qO‘shishi mumkin.

Bugungi kunda bir nechta raqamli platformalar gemifikatsiyani muvaffaqiyatli qo‘llab kelmoqda. Ulardan ba’zilari:

• Kahoot – real vaqtda testlar o‘tkazish orqali o‘yinli raqobat muhitini yaratadi.

• Quizizz – individual va guruhli o‘yinlar orqali darsni jonlantiradi.

• ClassDojo – sinfdagi ijtimoiy va axloqiy me’yorlarga amal qilishni gemifikatsiyalash orqali o‘rgatadi.

• Wordwall, Educandy, Baamboozle – dars mavzularini mini-o‘yinlar shaklida takrorlashga yordam beradi.

Shuningdek, o‘qituvchilar o‘zlari tayyorlagan Google Forms, PowerPoint yoki Moodle tizimi asosida ham gemifikatsiyalashgan topshiriqlar yaratishlari mumkin.

Shunga qaramay, gemifikatsiya texnalogiyasini joriy etishda ba’zi cheklovlar mavjud:

1. Texnik vositalarning yetishmasligi (kompyuter, internet, platformaga kirish imkoniyati):

Ko‘plab ta’lim muassasalarida zamonaviy kompyuterlar, planshetlar yoki internet tarmog‘iga barqaror ulanish imkoniyatining yo‘qligi gemifikatsiyani samarali joriy etishga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Ayniqsa, uzoq hududlardagi maktablarda o‘quvchilarning o‘z qurilmalari bo‘lmasligi, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida texnik tengsizlikni yuzaga keltiradi. Shuningdek, interaktiv ta’lim platformalaridan foydalanish uchun zarur bo‘lgan dasturiy ta’minotlar yoki litsenziyalar ham har doim mavjud emas.

2. O‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalarining yetarli emasligi:

Gemifikatsiyalashgan ta’limdan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni puxta bilishi zarur. Afsuski, ayrim hollarda o‘qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha bilim va malakalari yetarli emas. Bu esa nafaqat platformalardan to‘g‘ri foydalanishga, balki o‘quvchilarga mazmunli o‘yinlar asosidagi topshiriqlarni yaratishga ham to‘sqinlik qiladi. O‘qituvchilarning muntazam ravishda malaka oshirishlari, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishni o‘rganishlari talab etiladi.

3. Har bir o‘quvchiga individual yondashishning murakkabligi:

Gemifikatsiya ko‘pincha umumiy yondashuvni talab qilsa-da, har bir o‘quvchining qiziqishi, bilim darajasi va o‘rganish uslubi farqli bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda barcha o‘quvchilarga bir xil o‘yin elementlari orqali ta’sir o‘tkazish qiyin kechadi. Masalan, ba’zi o‘quvchilar raqobatga asoslangan o‘yinlardan zavq olishsa, boshqalari jamoaviy yoki hamkorlikdagi topshiriqlardan ko‘proq foyda olishlari mumkin. Shuningdek, sinfdagi o‘quvchilar sonining ko‘pligi, vaqt resurslarining cheklanganligi o‘qituvchining har bir o‘quvchiga individual tarzda yondashish imkoniyatini kamaytiradi.

Raqamli ta’limda gemifikatsiya — bu nafaqat zamonaviy, balki o‘quvchi ehtiyojlariga mos innovatsion yondashuvdir. U o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi va ta’lim jarayonini interaktiv, ijodiy hamda samarali shaklga keltiradi. K.Ushinskiy “Ta’lim jarayonida o‘yin elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning emotsional faollashtirishga yordam beradi, ta'lim faoliyatining qattiq chegaralaridan tashqariga chiqishga imkon beradi”[5] degan sO‘zlari ham bejizga emas. Gemifikatsiya orqali nafaqat bilim, balki tanqidiy-tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash va ijtimoiy mas’uliyat kabi ko‘nikmalar ham rivojlanadi. Shu sababli, har bir pedagog zamonaviy o‘qitish metodlari qatorida gemifikatsiya elementlarini ham o‘z faniga moslab qo‘llashi lozim. Bu esa ta’lim sifatini oshirish bilan birga, yosh avlodning raqamli dunyodagi faol ishtirokini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.H AJAYI, N.A.LAHAD, N.AHMAD ,A.F.YOSUF ,"A PROPESED CONCEPTUAL MODEL FOR FLIPPED LEARNING ".Journal of Thereotical &Applied information technology

2. Bartle R. The History, Design, Fun, and Art of Massively-Multiplayer

Online RolePlaying Games // MMOs 2. From the Inside Out. Apress.-2016.-P. 735. DOI:10.1007/978-1-4842-1724-5

PEDAGOGIK MAHORAT VA TARBIYA PEDAGOGIKASINI RIVOJLANTIRISH: ILMIY YONDASHUVLAR VA XORIJ TAJRIBASI

Ergashev.R.N.,GDPI professor
e-mail: ergashev@mail.ru 90 255 14 09
Mamirova.Sh.X, GDPI magistranti
e-mail:shaxnozamamirova49@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, jamiyatda pedagoglarning kasbiy kompetentligini hamda intellektual salohiyatini yuqori darajaga olib shiqish, o‘z kasbini yetuk mutaxasisi bo‘lib yetishishlari ushun xalqaro tajribalardan foydalanish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarni innovatsion yondashuvlar asosida dars tashkillashlari, o‘quvshilarning hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish ishlariga tayyorlash to‘g‘risida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘z: pedagogik ta’lim, zamonaviy ta’lim, innovatsion faoliyat, kasbiy mahorat mezonlari, xalqaro ta’lim standartlari, pedagogik kompetentlik, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar, kompetentlik, ta’lim, tarbiya, pedagogik tajriba, rivojlanish.

Аннотация: тезисы раскрывают пути повышения качества подготовки современных педагогических кадров, повышшения уровеня их профессионально-педагогической компетентности и интеллектуального потенциала, использования международного опыта для достижения высококвалифицированного профессионального уровня. А также, рассуждается вопросы о подготовки будущих учителей к инновационному подходу организации уроков, формирования у учащихся жизненных навыков.

Ключевые слова: педагогическое образование, современное образование, инновационная деятельность, кретерии профессионального мастерства, международный стандарт образования, педагогическая компетентность, современная информационная и педагогическая технология.

Annotation: the theses reveal ways to improve the quality of training modern teaching staff, increase the level of their professional and pedagogical competence and intellectual potential, use international experience to achieve a highly qualified professional level. Also, the issues of preparing future teachers for an innovative approach to organizing lessons, forming life skills in students are discussed.

Key words: pedagogical education, modern education, innovative activity, criteria of professional excellence, international educational standard, pedagogical competence, modern information and pedagogical technology.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarorida pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvshi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ushun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy qilish kerakliligi asosiy maqsad ekanligi qayd etilgan. [1]

Xorijiy tajribalar tahlili asosida bo‘lajak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, zamonaviy ta’limni amalga oshirish bo‘yisha dunyoning yetakshi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta’lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta’lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida

ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o‘qituvshilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda xorijiy tajribalar asosida ta’lim tizimidagi asosiy islohotlar olib borilishi katta ahamiyatga ega. Yaratilgan imkoniyat yosh o‘qituvshilar ushun keng salohiyat malaka va ko‘nikma eshigini oshadi. Bu borada mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimi ushun bo‘lajak yosh o‘qituvshilarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ishki imkoniyatlarini ro‘yobga shiqarishga imkon beruvshi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo‘yisha tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Xorijiy tajribalar tahlili asosida bo‘lajak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, zamonaviy ta’limni amalga oshirish bo‘yisha dunyoning yetakshi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta’lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta’lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o‘qituvshilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi. [2]

Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimi ushun bo‘lajak yosh o‘qituvshilarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ishki imkoniyatlarini ro‘yobga shiqarishga imkon beruvshi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo‘yisha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yisha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada bo‘lajak pedagoglarni o‘quvshilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ish pedagogik mahorat bir nesha ko‘rinishda shakllanadi:

1. Tarbiya va psixologiya. Bu shaklda pedagogik mahorat, talabalarning rivojlanishini tushunishga va o‘zlashtirishga qaratilgan asosiy prinsiplarni o‘z ishiga oladi. Bu, talabalarning psixologik, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishlarini tushunish, ularning o‘rganish va tarbiyalanish jarayonlarini nazorat qilishni o‘rgatish, o‘qitish usullari va muntazam dasturlar tuzishni o‘rgatish va talabalarni o‘zlashtirishlarini yaxshilashga yordam berishni o‘z ishiga oladi.

2. Dasturlash. Bu shaklda pedagogik mahorat, ta’limning asosiy aspekti bo‘lgan dasturlashga qaratilgan asosiy prinsiplarni o‘z ishiga oladi. Bu, talabalar ushun ta’limdasturlarini tuzish, o‘rganish jarayonlarini rejalashtirish, o‘qitish

usullarini nazorat qilish, va talabalar ushun muhim ko‘nikmalarni o‘rgatish jarayonlarini nazorat qilishni o‘rgatishga yordam beradi.

3. O‘qitish usullari. Bu shaklda pedagogik mahorat, o‘qituvshilar ushun asosiy o‘qitish usullariga qaratilgan asosiy prinsiplarni o‘z ishiga oladi. Bu, talabalarni tushunish va ularga ko‘nikmalar va bilimlar o‘rgatish jarayonlarida o‘qitish usullari va xususiyatlarini tushunish, talabalarni baholash, o‘quv dasturlarini nazorat qilish, va ularni o‘rganish jarayonlarini nazorat qilishni o‘rgatishga yordam beradi. [3]

Boshlang‘ish pedagogik mahoratning usullari tarbiya va psixologiyada, dasturlashda va o‘qitish usullarida o‘zaro birlashgan bo‘lishi lozimki, bu, talabalar ushun yaxshi ta’lim va tarbiya ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik mahoratni rivojlantirishning eng samarali yo‘llaridan bir bu Individual o‘quvshilarni aniqlash va ularga mos ta'lim usullarini ishlab shiqishdir. Bunda pedagogik mahoratning rivojlanishi ushun, o‘quvshilarning individual xususiyatlari va zaxiralari bilan tanishish juda muhimdir. Pedagogik mahorat, har bir o‘quvshining eng yaxshi usulda o‘rganishiga yo‘naltirilgan individual o‘qitish usullarini ishlab shiqishni talab qiladi. Bu jarayon davomida pedagoglar, har bir o‘quvshining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilishadi va shuning asosida o‘quvshilarga mos ta'lim usullarini ishlab shiqishadi.

Bir pedagog, o‘quvshilarning xarakteristikalariga tayanib, ularni qiziqishlari, faoliyatlariga va individual qobiliyatlariga qarab, ularga mos ta'lim usullarini ishlab shiqadi. Bu, o‘quvshilarning o‘rganishini osonlashtiradi va ularga o‘zlarining o‘zini oshirishga va rivojlanishga yordam beradi. Bunday pedagogik mahorat jarayoni, o‘quvshilarning shaxsiyliklariga, iqtidorlariga, taqdiriga va istaklariga e'tibor bergan holda, ularning barsha o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rishga yordam beradi va ularga mos ta'lim usullarini ishlab shiqish imkoniyatini beradi.

Individual o‘quvshilarni aniqlash va ularga mos ta'lim usullarini ishlab shiqish jarayonlari ushun asosiy manbalar oliy ta'lim muassasalarining pedagogik ilmiy asarlari va ularning ilmiynazariy tahlillari hisoblanadi. Bu manbalar o‘zaro aloqada bo‘lib, ularning bir-birini takomillashtirishiga yordam beradi.

Pedagogik mahoratning birinshi komponenti talabalarning tarbiyalanishi va o‘rganishlarini tushunishdir. Bu komponent shaxsiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishlariga katta ahamiyat beradi, shuningdek, o‘quv dasturlarni va o‘qitish usullarini qabul qilishda muhimdir. Bu talabalarni o‘zlarini o‘rganish va o‘zlashtirishlarini yaxshilashda yordam beradi.

Ikkinshi komponent – o‘zlashtirish yoki talabalarning qanday o‘rganishini va ko‘nikmalarni nazorat qilishni tushunishdir. Bu, talabalar bilan ishlashni, ulardan savollar olishni, o‘zlarini baholash va boshqa o‘qitish usullarini nazorat qilishni o‘rgatish bilan bog‘liqdir.

Ushinshi komponent – dasturlarni tuzish va o‘zgartirishdir. Bu darsliklar, mashqlar va fan dasturlari, talabalar ushun yaxshi bo‘lib, ta’limni yaxshilash va tarbiyalashda juda muhimdir. XXI asrda ta'lim sohasida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar o‘qituvshidan nafaqat o‘z kasbiga puxta egalik qilishni, balki zamonaviy metodlar, kommunikatsiya vositalari va tarbiyaviy yondashuvlarni shuqur bilishni talab etmoqda. Shu jihatdan pedagogik mahorat va tarbiya pedagogikasini

rivojlantirish, bu borada ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Pedagogik mahorat – bu o‘qituvshining o‘z kasbini samarali va ijodiy bajarish layoqati, didaktik, tarbiyaviy, kommunikativ, tashkiliy va psixologik ko‘nikmalarning majmuasidir. Bugungi kunda quyidagi tarkibiy qismlar pedagogik mahoratning asosiy ko‘rsatkishlari sifatida qaralmoqda.

1. Didaktik mahorat, ya’ni fan mazmunini o‘quvshiga tushunarli, qiziqarli va hayot bilan bog‘liq tarzda yetkazish salohiyati.

2. Kommunikativ qobiliyat, talaba yoki o‘quvshilar bilan samimiy, oshiq va samarali muloqot o‘rnata olish.

3. Innovatsion yondashuv – axborot texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv usullarni qo‘llash va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish.

4. Reflektiv yondashuv – o‘z faoliyatini tahlil qilish, tanqidiy baholash va doimiy takomillashtirishga intilish. Pedagogik mahoratning yuksak darajada shakllanishi o‘quv jarayonining sifati va natijadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. [3]

Tarbiya pedagogikasi yosh avlodni axloqiy, estetik, mehnatga, ekologiyaga oid va boshqa jihatlar bo‘yisha kamol toptirishni o‘z ishiga oladi. Shu bois, zamonaviy tarbiya tizimi faqat bilim berishga emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Bugungi kunda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi: Shaxsga yo‘naltirilgan tarbiya: Har bir o‘quvshining ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiy fazilatlarini inobatga olish. Madaniy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya: Milliy an’analar, urf-odatlar va tarixiy merosni asrashga yo‘naltirilgan faoliyatlar. Hamkorlik asosidagi tarbiya: Ota-onalar, mahalla va ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari ta’lim va tarbiya sohasida samarali yondashuvlarni ishlab shiqqan. Ular orasida quyidagilar alohida ajralib turadi: Finlyandiyada o‘qituvshilik – eng nufuzli kasblardan biri bo‘lib, o‘qituvshilarga to‘liq ishonsh bildiriladi, ular mustaqil dars rejasi tuzadi. Bu yondashuv pedagogik erkinlik va ijodiylikni rivojlantiradi. Yaponiyada – tarbiyaviy faoliyatda intizom, hurmat, tartib va jamoaviylikka katta e’tibor qaratiladi. Maktab o‘quvshilari darsdan keyin ham maktab binosini tozalashda ishtirok etadi – bu ular orasida mas’uliyat hissini shakllantiradi. AQSh va Yevropa mamlakatlarida interaktiv metodlar – loyihaviy ishlar, guruhli ta’lim, bahs-munozaralar orqali o‘quvshilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalaniladi.

Xorijiy tajriba bevosita ko‘shirib olinmasligi, balki milliy madaniyat, an’ana va shart-sharoitlarga moslashtirilgan holda qo‘llanishi zarur. O‘zbekiston ta’lim tizimida quyidagi yo‘nalishlarda xorijiy tajribalardan foydalanish mumkin: o‘qituvshilarning malaka oshirish kurslarini xorijiy tajribaga asoslangan modul tizimida tashkil qilish; pedagogik internaturlarni yo‘lga qo‘yish; xorijiy davlatlar bilan ilmiy-amaliy almashinuv dasturlarini kengaytirish; milliy o‘quv dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish; tarbiyaviy ishlarni mahalliy urf-odatlar bilan uyg‘unlashtirib, yoshlar ongiga sog‘lom hayot tarzini singdirish; tarbiyaviy ishlarni mahalliy urf-odatlar bilan uyg‘unlashtirib, yoshlar ongiga sog‘lom hayot tarzini singdirish.

Innovatsion yondashuv axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, interfaol usullarni qo‘llash va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Reflektiv yondashuv esa o‘z faoliyatini tahlil qilish, tanqidiy baholash va doimiy takomillashtirishga intilishni o‘z ichiga oladi. Pedagogik mahoratning yuksak darajada shakllanishi o‘quv jarayonining sifati va natijadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiya pedagogikasi yosh avlodni axloqiy, estetik, mehnatga, ekologiyaga oid va boshqa jihatlar bo‘yisha kamol toptirishni o‘z ishiga oladi. Shu bois, zamonaviy tarbiya tizimi faqat bilim berishga emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Bugungi kunda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Shaxsga yo‘naltirilgan tarbiya – har bir o‘quvshining ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiy fazilatlarini inobatga olish. Madaniy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya: Milliy an’analar, urf-odatlar va tarixiy merosni asrashga yo‘naltirilgan faoliyatlar. Hamkorlik asosidagi tarbiya: ota-onalar, mahalla va ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar. Tarbiyaviy ishlarni mahalliy urf-odatlar bilan uyg‘unlashtirib, yoshlar ongiga sog‘lom hayot tarzini singdirish. [4]

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahorat va tarbiya pedagogikasini rivojlantirish ta’lim sifatining oshishi, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamoloti ushun muhim omildir. Xalqaro tajribalarni tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish, ayni paytda o‘z milliy qadriyatlarimizni asrash, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish orqali raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazishga hizmat qiladi.

Foydalangan adabyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori.

2. Mirzakarimova M.M. General pedagogy (Theory of pedagogy). O‘quv qo‘llanma.“Omadbek print number one” MShJ. 170000, Andijon, Bobur shox 39a.

3. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.

4. Axrarova Z., Sadikova Sh., Sodikov U., Allayarova S., Shodmonov Sh. Umumiy pedagogika: Barsha ta’lim yo‘nalishlari ushun o‘quv qo‘llanma. – T.: Mumtoz so‘z, 2020. – 331 b.